



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI
BOSHQARISH AGENTLIGINING
TOSHKENT VILOYATI HUDUDIY BOSHQARMASI**

BUYRUQ

“16” avgust 2023y

No 87 i/ch

**Davlat aktivlarini samarali boshqarishda professional tashkilotlar va
ixtisoslashgan konsalting tashkilotlari tomonidan Davlat aktivlarini
boshqarish agentligining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasiga
ko'rsatiladigan xizmatlarning davlat xaridini amalga oshirish tizimini
tartibga solish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-son qarori, Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarni amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 20-maydagi 276-son qaroriga muvofiq, davlat aktivlarini samarali boshqarishda professional tashkilotlar va ixtisoslashgan konsalting tashkilotlari tomonidan Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasiga (keyini o'rnlarda – Agentlik) ko'rsatiladigan xizmatlarning davlat xaridini amalga oshirish tizimini tartibga solish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq, eng yaxshi takliflarni tanlash (keyingi o'rnlarda – tanlash) vositasidagi davlat xaridi **quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda** amalga oshirilishi:

g'olibni aniqlash mezonlari tovar (ish, xizmat) davlat xaridining nafaqat pul ifodasiga, balki miqdoriy va sifat bahosiga ham ega bo'lganda;

tovarning (ishning, xizmatning) qiymati **bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining budget buyurtmachilari uchun **olti ming baravarigacha bo'lgan miqdorni tashkil etganda;****

agar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan davlat buyurtmachilariga tender o'tkazmasdan xaridlarni amalga oshirish huquqi berilsa,

xarid qilish tartib-taomili davlat xaridining summasidan qat'i nazar tanlash orqali amalga oshirilishi;

tanlash majburiy tartibda elektron shaklda o'tkazilishi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno ekanligi;

davlat xaridini tanlash orqali amalga oshirish uchun davlat buyurtmachisining xodimlari orasidan **kamida besh nafar a'zodan** iborat tarkibda xarid komissiyasi tuzilishi belgilangan.

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-son qarori bilan:

O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va uning hududiy bo‘linmalariga, shu jumladan xorijiy tashkilotlar tomonidan xususiy lashtiriladigan yoki xo‘jalik jamiyatlarining ustav fondlariga davlat ulushi sifatida o'tkaziladigan davlat aktivlarini **baholash xizmatlari**;

davlat aksiyalari (ulushlar) paketlarini sotish hamda mahalliy va xorijiy fond birjalarida IPO (SPO) bo‘yicha emissiyalarni joylashtirish uchun **jalb qilinadigan investitsiya vositachilari, maslahatchilari**, shu jumladan xorijiy maslahatchilarning O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi va uning hududiy boshqarmalariga ko‘rsatadigan xizmatlarini **to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar asosida** xarid qilish huquqi berilganligi, bunda, mazkur xizmatlarning davlat xaridi bo‘yicha tuzilgan shartnomalar va ularga qo‘srimcha kelishuvlar O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi huzuridagi “Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” davlat unitar korxonasida **kompleks ekspertizadan o'tkazilmasligi**, bundan qiymati **bazaviy hisoblash miqdorining** olti ming baravari miqdoridan oshgan shartnomalar va **ularga qo‘srimcha kelishuvlar mustasno ekanligi** ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Davlat aktivlarini samarali boshqarishda professional tashkilotlar va ixtisoslashgan konsalting tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha Davlat aktivlarini boshqarish agentligining **xarid komissiyasi** (keyingi o‘rinlarda – Komissiya) **tarkibi** 1-ilovaga, **xarid komissiyasi faoliyati to‘g‘risidagi Reglament** 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Belgilansinki, Davlat aktivlarini samarali boshqarishda professional tashkilotlar va ixtisoslashgan konsalting tashkilotlari tomonidan Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga ko‘rsatiladigan xizmatlarning davlat xaridini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2022-yil 20-maydag'i 276-son qaroriga muvofiq, mazkur buyruqning 2-ilovasidagi Reglamentda nazarda tutilgan mexanizm asosida amalga oshiriladi.

4. Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo‘limi (B.Shermatov) mazkur buyruqning nusxalari bilan hududiy boshqarmaning tegishli tarkibiy bo‘linmalari hodimlarini tanishtirsin.

5. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish hududiy boshqarma boshlig‘ining o‘rinbosarlari O.Ortiqboyev va A.Xaydarovlar zimmasiga yuklatilsin.

Hududiy boshqarma boshlig‘i

S.Jumayev

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Toshkent viloyati hududiy boshqarmasining
2023-yil *16* avgustdaggi *82* son buyrug‘iga
1-ilova

**Davlat aktivlarini samarali boshqarishda professional tashkilotlar va
ixtisoslashgan konsalting tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar
bo‘yicha Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Toshkent viloyati
hududiy boshqarmasining xarid komissiyasi
TARKIBI**

- | | |
|--|--|
| <ol style="list-style-type: none">1. Ortiqboyev Otabek Muzaffar o‘g‘li2. Julianov Kamol Julianovich | <ul style="list-style-type: none">– Hududiy boshqarma boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari, <i>Komissiya raisi</i>– Davlat aktivlarini xususiylashtirishga tayyorlash va xususiylashtirish bo‘limi bosh mutaxassis, <i>Komissiya raisi o‘rinbosari</i> |
| Komissiya a’zolari: | |
| <ol style="list-style-type: none">3. Olovxonov Shoxro‘z Raximxon o‘g‘li4. Abdulaxatova Lola Xaytjonovna5. Cho‘tboyev Ilxom Komiljonovich6. Toirbekov Kamol Qizilbekovich7. Bekmirzayev Murod Mirgarofovich | <ul style="list-style-type: none">– Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish bo‘yicha bosh mutaxassis– Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ munosabatlarni ta’minalash bo‘limi bosh mutaxassis– Bosh hisobchi– To‘lovga qobiliyatsizlik jarayonini yuritish bo‘yicha bosh mutaxassis– Xususiylashtirish va boshqa manbalardan tushgan mablag‘larni taqsimlash bo‘yicha bosh mutaxassis |
| Komissiya kotibi: | |
| <ol style="list-style-type: none">8. Tursunqulov Shuxratjon Ibragim o‘g‘li | <ul style="list-style-type: none">– Davlat aktivlarini xususiylashtirishga tayyorlash va xususiylashtirish bo‘limi yetakchi mutaxassis, <i>Xarid komissiyasi mas’ul kotibi</i> |

Izoh: Xarid komissiyasi raisining roziligidagi asosan hududiy boshqarmaning har bir buyurtmasi bo‘yicha tanlov yoki tender o‘tkazish uchun alohida Xarid komissiyasi mazkur Xarid komissiyasi tarkibidan kelib chiqib shakllantiriladi.

Xarid komissiyasi a’zolari boshqa ishga o’tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan yoki ushbu vazifani bajarish yuklatilgan xodimlar kiritiladi.